

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIĞI**

2023 - yil 9 - sentabr

199-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 73-moddasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023-yil 18-iyuldagi 01-09/16-07/574-son dasturi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 4-avgustdagi CM/12-02/3166-son xulosasiga muvofiq, joriy yilning 19-22-iyul kunlari Isroil va Qozog'iston davlatlari tadbirkorlaridan iborat delegatsiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi bilan bog'liq sarflangan xarajatlarni qoplash maqsadida:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (R.Sultanov) delegatsiya a'zolarining tushlik va kechki ovqati uchun sarflangan jami **6 168 500,00** (*olti million bir yuz oltmish sakkiz ming besh yuz*) so'm mablag'ini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratish choralarini ko'rsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (D.Joldasov) ajratilgan mablag'larni qonunchilikda o'rnatilgan asoslarda va tartibda, maqsadli yo'naltirilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (B.Utambetov)dan ajratilgan mablag'larning qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarda va tartibda, maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish so'ralsin.

4. Ushbu farmoyishning qonunchilikka muvofiq bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari A.Oteuliyev zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov